



Koxlear implantatsiyaning nazariy asoslari

Abdurashidov Jamshid

Qo'qon DU magistranti

Annotatsiya

Hozirgi kunda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga bo'lgan e'tibor ayniqsa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga qaratilgani nafaqat ularni ta'lim – tarbiyasi qolaversa nuqsonini bartaraf etishga alohid etibor berilmoqda. Koxlear implant fikrimiz isboti o'laroq aynan maktabgacha yoshdagi shunday bolalarga alohida etibor talab etmoqda.

Kalit so'zlar: kohlear implant, zaif eshtuvchi, karlik, chig'anoq, eshtish idroki

Bugungi kunda qator mamlakatlarda istiqomat qiluvchi ko'pgina insonlar eshitishni koxlear implantant yordamida tiklab borishlari toboro keng tarqalib bormoqda. Dunyo miqyosida eshitishni koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash borasidagi jarrohlik operatsiyalari qirq yildan ortiqroq vaqt mobaynida Avstraliya, AQSH, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Rossiya mutaxassislari tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Jahonda implantatsiya qilingan hamma yoshdagi mijozlarni reabilitatsiya qilish, nutq protsessorlarini qo'llash strategiyasini yaratish, jarrohlik operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha yetarlicha tajribalarni qo'shgan insonlar R.V.Harrison, Y.Henkin, M. Luntz, M.Lutman, J.G.Nikolas, A.J.Parkinson va boshqalar. Rossiyada ham koxlear implantatsiya meditsina aspektini yoritadigan ilmiy – izlanish ma'lumotlari yog'ilib kelmoqda. Koxlear implantant yuzasidan Rossiya olimlaridan M.R.Bogomilskiy, I.V.Koroleva, A.V. Kruglov, A.V.Pashkov, S.M.Petrov, V.I.Pudov, A.N.Remizov, V.P.Sitnikov, G.A.Tavartkiladze, V.I.Fedoseev va boshqalar ishlarini misol qilib olsak bo'ladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning reabilitatsiyasi bilan tibbiyot xodimlari hamda pedagoglar faol shug'ullanganlar.

Turli xorijiy davlatlar mutaxassislarning ishlari mehnatlari natijasida past eshituvchi va karlarni o'qitish tizimida, ularning falsafiy qarashlari, tibbiyot, pedagogik va didaktik g'oya va yo'nalishlari aks etgan. Bunda kar bolalar nutq holati va uning buzilishi bilan aniqlangan. Shu davrdan boshlab past eshituvchi bolalarni alohida toifa sifatida ajratishga qaratilgan dastlabki urinishlar olib borildi.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarning og‘zaki nutqni egallashlari o‘ta samarali bo‘ladi deb hisoblagan. Germaniyada esa so‘zlashuv nutqiga o‘rgatishni ilk davrlarban boshlash g‘oyasi opa-singil Emma va Meri Garretlarga tegishli bo‘lib, ular onaning talaffuziga taqlid qilishga asoslangan “onalar maktabi” metodidan foydalanadilar.

Rossiyada XIX asr boshlarigacha ham mavjud tarbiya uylarida asosiy e‘tibor bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog‘lig‘ining mustahkamlanishi, xulq-atvor ko‘nikma va malakalarini tarbiyalashga qaratilgan. Bu yerda nutqni shakllantirish vazifasi belgilanmagan edi. XIX a*sr boshlariga kelib, imkoniyati cheklangan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish muammosiga qarashlar nisbatan o‘zgaradi. Shunda birinchi o‘ringa kar bolalarni o‘qitish va ularning imkoniyatlarini aniqlash masalasi qo‘yiladi. So‘zlashuv nutqiga o‘rgatishda imo-ishora, daktilologiya, yozuv, og‘zaki nutqdan foydalanish metodlari ishlab chiqiladi (G. A. Gurov, V. I. Fleri va boshqalar).

Bir qator olimlar o‘z diqqat e‘tiborlarini quyidagi masalaga qaratadilarki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda aksari hollarda yondosh chetlashishlar ko‘riladi. Shunga muvofiq holatda ular ikki asosiy guruhlariga bo‘linadi-

- Intellektual rivojlanishini saqlab qolgan eshitishida nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalar,
- Rivojlanishida ayrim yondosh cheklanishlari bo‘lgan bolalar(bir yoki bir necha)- intellektning buzilishi, ko‘ruvning, tayanch-harakat apparidagi buzilish, emotsional-irodaviy sohadagi buzilishlar.

Hozirgi kunda olimlar o‘z diqqat-e‘tiborlarini eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kompleks rehabilitatsiyaga muhtoj bo‘lishlariga qaratmoqdalar. Kompleks rehabilitatsiya o‘z ichiga tibbiy, psixologo-pedagogik va ijtimoiy ko‘makni olgan bo‘lib, shu jumladan bu individual holda tashkil etiladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga kompleks rehabilitatsiya tizimida individual yondashuv pedagoglarga bolalar yosh davriga nisbatan psixonutqiy rivojlanishning psixologo-pedagogik hamkorlikda olib borishning metod va shakllarni aniqlashda yordam beradi. Kompleks rehabilitatsiya masalasi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, tibbiyot, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va jamiyatning huquqiy ko‘magiga asoslangan holda har tomonlama barqaror integratsion yondashuvni talab etadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni kompleks rehabilitatsiya qilish bolaga shaxsiy-individual potensialni rivojlantirishga imkoniyat beruvchi samarali ijtimoiy, psixologo – pedagogik sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Bunda, korreksion-pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonida qanday kompensator mexanizmlarni amalga oshirish, bola potensial imkoniyatlari rivojlanishida, jamoaga ijtimoiy-maishiy moslashuvda optimal darajaga erishish uchun qanday vositalardan foydalanish zarurligini maqsadga muvofiq holda aniqlab olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodjon , Khovodillayev , D. Abdurazoqova , and Ortikov Muhtorilla . "SYSTEM OF WORK ON THE FORMATION OF CONNECTED SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN AGE 9-13." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

2. Khovodillayev , MX, and Nazarova Kizlarxon . "ORGANIZATION OF WORK ON DETECTION AND ELIMINATION OF SPEECH DEFECTS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
3. Khovodillayev , MX, Kadyrov Dilyor , and Khudoyberdiev Jawohir . "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF CHILDREN WITH SEVERE INTELLECTUAL DISABILITIES." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
4. Muradkhan , Khovadillayev . "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 11.11 (2023): 343-347.
5. Rustam , Khayitov Lazizbek , and Murodjon Khavodullayev . "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 11.11 (2023): 547-552.
6. Murodjon , Khovodillayev . "METHODS FOR THE FORMATION OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Academia Repository 4.10 (2023): 332-335.